Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321013

ta’minlashning ustivor yo’nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2. Жумаев Ш. Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум. 2024. №4-1 (119).

3. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 368–374. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374

4. Jumaev S. On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 48. – C. 330-336.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI PASAYTIRISH YO`NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Xashimova Zuhraxon Kahramonovna
Farg`ona Politexnika Instituti Magistranti
zuhrahasimova007@gmail.com

Annotatsiya. So`nggi yillarda raqamli iqtisodiyot texnologiyalarining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, ishlab chiqarish faoliyatidagi xarajatlarni pasaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirish va raqamli yechimlar orqali korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, resurslardan foydalanishni optimallashtirishga va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Quyida raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yo‘nalishlari va ularning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar. Raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish xarajatlari, texnologiya, avtomatlashtirish, texnologik transformatsiya.

Kirish

Barchamizga ma`lumki, raqamli iqtisodiyot — bu axborot texnologiyalari va raqamli vositalar orqali iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, optimallashtirish va innovatsiyalarni amalga oshirishdir. Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning yangi usullari paydo bolmoqda. Hukumatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni yanada rivojlanishini ta`minlash yuzasidan ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda tasdiqlangan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan O‘RQ-630-sonli "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi qonuni bularga yorqin misol bo`la oladi. Ularda asosiy maqsad etib, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha sohalariga innovatsion yechimlarni joriy qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish belgilangan.

Ushbu tezisni yozishda ilmiy mushohada, adabiyot tahlili, statistik, mantiqiy tadqiqot usuli, nazariy tahlil kabi usullardan foydalanildi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish quyidagi yo`nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Xashimova Zuhraxon Kahramonovna (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yo`nalishlari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321013

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Korxonalarda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robototexnikani joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, chunki ular mehnat va vaqtni tejash, hamda xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi.

Internet of Things texnologiyalari orqali ishlab chiqarish jarayonlari uzviy monitoring qilinadi va real vaqtda boshqariladi, bu esa resurslarni samarali boshqarish va ortiqcha xarajatlarni oldini olish imkonini beradi.

Big Data va analitikani ishlab chiqarish korxonalarida joriy qilishda katta ma'lumotlar va ularni tahlil qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish mumkin. Tahlil natijalariga asoslangan qarorlar, ishlab chiqarish rejalashtirishni yaxshilash va iste'molchilarning talablariga moslashtirishni ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt yordamida esa ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi va ishlov berishning samaradorligi oshiriladi. Bu esa ortiqcha resurslardan foydalanishni kamaytiradi va xarajatlarni pasaytiradi.

Blokcheyn texnologiyasini ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilinishi ma'lumotlarning xavfsizligi va transparentligini ta'minlashi mumkin, bu esa jarayonlardagi xatoliklarni kamaytiradi va ortiqcha xarajatlarning oldini oladi.


1-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun raqamli texnologiyalarning samaradorligi[146]

Raqamli texnologiya	Xarajatlarni kamaytirish yo`nalishlari	Samaradorlikning oshishi
Avtomatlashtirish	Mehnat xarajatlarini qisqartirish	Ishlab chiqarish tezligini oshirish
Internet of Things	Energiya va resurslardan samarali foydalanish	Sifatni yaxshilash
Sun`iy intellekt	Qarorlar qabul qilishda tezlik va aniqlik	Optimizatsiya va tavsiyalar
Bulutli texnologiyalar	Infratuzilmani soddalashtirish, saqlash xarajatlari	Ma`lumotlar bilan ishlash samaradorligi
Blokcheyn	Ishlab chiqarish jarayonlarini shaffof qilish	O‘tkazmalar va tranzaksiyalarni tezlashtirish

Raqamli texnologiyalarning korxonalar faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishi bir qator iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, kompaniyalarga narxlarni pasaytirish va sifatni yaxshilash imkonini beradi. Bu raqobatbardoshlikni oshiradi va bozor ulushini kengaytiradi. Resurslar va energiyani tejash, texnologiyalarni optimallashtirish orqali kompaniya xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali vaqt va mehnat sarfini kamaytirish mumkin. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga va daromadni ko‘paytirishga olib keladi. Raqamli iqtisodiyot ekologik jihatdan ham foydalidir, chunki raqamli vositalar orqali resurslardan yanada samarali foydalanish mumkin, bu esa tabiiy resurslarni tejashga va atrof-muhitga zararni kamaytirishga yordam beradi.

[146] Jadval mavzu doirasidagi nazariy bilimlar va ma`lumotlar asosida muallif tomonidan tayyortlandi.



1-rasm. O`zbekiston Respublikasida Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoatning yalpi qo`shilgan qiymati hajmi (mlrd.so`m)[147]

Yuqorida keltirilgan diagrammadan ko`rinib turibdiki O`zbekistonda raqamli iqtisodiyot sanoat rivojlanishi va o`sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Ya’ni, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar sanoatdagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yalpi qo‘shilgan qiymat hajmini 2020-2023 yillar oralig`ida sezilarli ko`payishiga sabab bo`lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki raqobatbardoshlikni yaxshilash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va global miqyosda iqtisodiy o‘sishni ta`minlaydi. Raqamli transformatsiyani amalga oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish esa ma`lumki, mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar hozirgi kunda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Avtomatlashtirish, IoT, Big Data, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalar sanoat korxonalariga ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish uchun imkon beradi. Buning natijasida korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi oshadi, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilanadi va ekologik barqarorlik ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “RAQAMLI O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to`g`risidagi PF-6079-sonli Farmoni **https://lex.uz/ru/docs/-5030957**

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son **https://lex.uz/docs/-4910391**

O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma`lumotlari **https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot**

Jumaniyozov, X. (2020). Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

[147] O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot

Shukurov, T. (2019). Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: iqtisodiy va texnologik yondashuvlar. Toshkent: Akademnashr.

BANKLARARO ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANISHI

Abduraximova Feruza Alisherovna
Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti
feruza6696@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur tezis banklararo elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi masalasiga bag‘ishlangan. Unda banklararo to‘lov tizimlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning, xususan, blokcheyn, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektning o‘rni o‘rganilgan. Tezisda xalqaro standartlar va tajribalar asosida banklararo to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilishning istiqbollari ham ko‘rib chiqilgan. Integratsiyalashgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan to‘lov tizimlari nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida taqdim etilgan. Tezis tezis banklararo elektron to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari va texnologik imkoniyatlari haqida to‘liq tasavvur beradi va bu boradagi tadqiqotlar uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Bank, elektron to‘lov, to‘lov tizimi, zamonaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya, xavfsizlik, shaffoflik, moliyaviy infratuzilma, to‘lov jarayonlarini avtomatlashtirish, innovatsiya, kiberxavfsizlik, moliyaviy texnologiyalar.

Banklararo to‘lov tizimi har qanday mamlakat moliyaviy tizimining asosiy qismidir. Uning rivojlanishi bank sektorining samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi banklararo to‘lov mexanizmlarining sifatini yaxshilash va tezligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

To‘lov tizimining rivojlanishi, avvalo, uning ishonchliligi va xavfsizligini oshirish bilan bog‘liq. Xavfsizlik masalalari, ayniqsa, kiberhujumlar xavfi yuqori bo‘lgan sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy kriptografik texnologiyalar, shuningdek, blokcheyn texnologiyasining tatbiqi to‘lov tizimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Blokcheyn asosidagi tizimlar, ayniqsa, tranzaksiyalarning shaffofligini oshirish va ularni real vaqt rejimida kuzatishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar banklararo to‘lov tizimlarining rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, ular banklararo elektron to‘lov tizimlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Quyida eng asosiy texnologiyalar va ularning ta‘siri ko‘rib o‘tamiz (1-jadval):

1-jadval

Banklararo elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy texnologiyalari[148]

Blokcheyn texnologiyasi	Blokcheyn texnologiyasi orqali banklararo tranzaksiyalarni vositachilarsiz va xavfsiz amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu texnologiya to‘lovlarning shaffofligi va tezkorligini ta‘minlaydi.

[148] Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi